

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN SPORT
PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH FANIDAN MALAKA TEST
SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida sport pedagogik mahoratini oshirish fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli **“Umumta‘lim fanlarini kasbiy ta‘lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi”** qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Sport pedagogik mahoratini oshirish

1. “Fotbol”
2. “Voleybol”
3. “Gandbol”
4. “Basketbol”
5. “Stol tennisi”

Ommaviy jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish tadbirlarini tizimli tashkil etish

6. “Ommaviy sport va sog‘lomlashtirish tadbirlarining bolalar organizmini chiniqtirishdagi o‘rni”

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	“Futbol”	<p>Futbolning rivojlanish tarixi va tasnifi.</p> <p>Futbol texnikasi va taktikasi tasnifi.</p> <p>Musobaqa qoidalari va uni tashkil qilish asoslari.</p> <p>Jismoniy tayyorgarlik: umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish asoslari.</p> <p>Futbol bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotlarini o‘tkazish xususiyatlari.</p> <p>Futbol sport turidan hakamlik qoidalari.</p>	9 ta
2	“Voleybol”	<p>Voleybolni ilk bor ixtiro qilishini.</p> <p>O‘zbekistonda voleybolning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi.</p> <p>Voleybol darsi va uni o‘tkazish tartibi.</p> <p>Voleybol texnikasi va taktikasi tasnifi.</p> <p>Musobaqa qoidalari va uni tashkil qilish.</p> <p>Voleybol sport turidan hakamlik qoidalari.</p>	9 ta
3	“Gandbol”	<p>Gandbol o‘yining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.</p> <p>Respublikamizda gandbolning rivojlanishi.</p> <p>Gandbol darsi va uni o‘tkazish metodikasi.</p> <p>Gandbol texnikasi va taktikasi tasnifi.</p> <p>Gandbol sport turidan hakamlik qoidalari.</p>	8 ta
4	“Basketbol”	<p>Basketbolning rivojlanish tarixi va tasnifi.</p> <p>O‘zbekistonda basketbolning rivojlanishi.</p> <p>Basketbol texnikasi va taktikasi tasnifi.</p> <p>Musobaqa qoidalari va hakamlik qilish.</p> <p>Maydon va jihozlar.</p> <p>Basketbol mashg‘uloti va uni o‘tkazish uslubiyati.</p> <p>Basketbol sport turidan hakamlik qoidalari.</p>	8 ta
5	“Stol tennis”	<p>Stol tennis tarixi.</p> <p>Stol tennisida o‘yin qoidalari.</p> <p>Musobaqalarni tashkil qilish.</p>	4 ta
6	“Ommaviy sport va sog‘lomlashtirish tadbirlarining bolalar	<p>Jismoniy tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari.</p> <p>“Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlarining turlari va baholash mezonlari mazmun va mohiyati.</p>	2 ta

	organizmini chiniqtirishdagi o‘rni”		
--	-------------------------------------	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig‘ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me‘yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini

testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Jumanov Ortug‘mat. Sport o‘yinlari va uni o‘qitish metodikasi [Matn]: darslik / O.S. Jumanov. – Toshkent: 2024. -448 b.

2. Tursunaliyev Ilhomjon. Sport o‘yinlari [Matn]: darslik / I.A. Tursunaliyev. – Toshkent: 2021. -329 b.

3. Abdullayev Farxod. Ommaviy jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish tadbirlarini tizimli tashkil etish [Matn]: o‘quv qo‘llanma / F.T. Abdullayev. – Toshkent: 2024. -168 b.

4. Usmonov Aksam. Sport pedagogik mahoratini oshirish (futbol) [Matn]: o‘quv qo‘llanma / A.R. Usmonov. – Toshkent: 2021. -144 b.

5. Jumanov Ortug‘mat., Beknazarov Abdirahmon. Sport o‘yinlari nazariyasi va uslubiyati (basketbol) [Matn]: o‘quv qo‘llanma / O.S. Jumanov., A.R. Beknazarov – Toshkent: 2021.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*